XALQ DEPUTATLARI ANDIJON VILOYATI KENGASHINING QARORI

Andijon shahar, Abdurauf Fitrat ko`chasi 239-uy

2024 - yil 15 - yanvar VI-57-2-1-0-K/24 Andijon viloyati hokimligi

Andijon viloyatida kelgusi yillar davrida ulgurji va aholi iste'molchilarga issiqlik ta'minoti yuzasidan kommunal xizmatlar tarifini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15 sentyabrdagi "Yoqilg'i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi № 475- sonli qaroriga asosan issiqlik ta'minoti korxonalari uchun 2023-yil 1-oktyabrdan kuchga kirgan yoqilg'i-energetika resurslarining, ya'ni elektr energiyasini 1 kVt soati uchun 900 so'm va tabiiy gazni 1 kub metri uchun 1500 so'm QQS hisobga olingan holda yangi tariflari tasdiqlandi. Shuning uchun kelgusi yillar uchun ulgurji va aholi iste'molchilariga issiqlik ta'minoti yuzasidan kommunal xizmatlar bo'yicha tarifni shakllantirishda rentabellik darajasi, energoresurslarni narxi ortganligi sababli aholiga va boshqa ulgurji iste'molchilarga issiqlik energiyasi yetkazib berish xizmati uchun tarif narxlarni o'zgartirish zaruriyati yuzaga kelgan va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining 2023-yil 1-noyabrdagi № 07/36-2-5281 sonli xatiga asosan tarif narxlarini oshirish bo'yicha tegishli topshiriq ko'rsatmalar berilgan.

Shunga ko'ra Andijon viloyat "Issiqlik manbai" Davlat unitar korxonasi tomonidan 2023-yil 7-noyabrdagi № 01-315 sonli, 2023-yil 29-noyabrdagi № 01-367 sonli xatlari va tegishli ma'lumot jadvallar bo'yicha 1 G/kal issiqlik energiyasi ishlab chiqarish uchun taklif etilayotgan narxlar Andijon viloyati Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi va Andijon viloyati Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmalariga taqdim etilgan va Andijon viloyat Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasining 2023-yil 15-noyabr kunida № 1891/04-04- sonli va Andijon viloyati Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 1-dekabr kunidagi № 03/01-11-32-/869 sonli xulosalari olingan.

Viloyatda kelgusi yillar uchun ulgurji va aholi iste'molchilariga issiqlik ta'minoti yuzasidan kommunal xizmatlar bo'yicha taklif etilayotgan tarif narxlari yuzasidan "Issiqlik energiyasi ishlab chiqarish transportirovkasi" narxlariga shakllantirilgan shartnomaviy narxlari

(tariflari) asosligi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15 sentyabrdagi «Yoqilg‘i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi № 475- sonli qarori ijro uchun, Andijon viloyat “Issiqlik manbai” Davlat unitar korxonasi tomonidan 2023-yil 7-noyabrdagi № 01-315 sonli, 2023-yil 29-noyabrdagi № 01-367 sonli xatlari, Andijon viloyat Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasining 2023-yil 15-noyabr kunida № 1891/04-04- sonli va Andijon viloyati Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 1-dekabr kunidagi № 03/01-11-32-/869 sonli xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyatda kelgusi yillar uchun ulgurji va aholi iste’molchilariga issiqlik ta’minoti yuzasidan kommunal xizmatlar bo‘yicha taklif etilayotgan tarif narxlari yuzasidan “Issiqlik energiyasi ishlab chiqarish transportirovkasi” narxlariga shakllantirilgan shartnomaviy narxlari (tariflari) asosligi 1-ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Viloyat hokimligi matbuot xizmati (M.Ibrohimov) mazkur qarorni matbuotda e’lon qilsin va viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

4. Xalq deputatlari Andijon viloyat kengashining 2023-yil 24-iyuldagi VI-51-138-1-0-K/23-sonli “Andijon viloyatida kelgusi yillar davrida ulgurji va aholi iste’molchilarga issiqlik ta’minoti yuzasidan kommunal xizmatlar tarifini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyati Kengashining sanoat, transport, qurilish, kommunal va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Xojiboyev) hamda viloyat hokimining o‘rinbosari I.Xolmatov zimmalariga yuklatilsin.

Viloyat hokimi **SH.Q.Abdurahmanov**

Xalq deputatlari Andijon viloyat
Kengashining
2024-yil 15-yanvardagi
VI-57-2-1-0-K/24-son qaroriga
1-ilova

Andijon viloyat “Issiqlik manbai” davlat unitar korxonasi tomonidan issiqlik energiyasi yetkazib berish uchun amaldagi va taklif etilayotgan narxlar (tariflar)

Xizmat turi	Amaldagi narx (tarif) QQSsiz so‘m	Tasdiqlangan narx (tarif) QQSsiz so‘m
Issiqlik energiyasi yetkazib berish xizmatlari narxi		
Aholi uchun 1 m2 uchun	1367	1367
Aholi uchun 1 G kal	120 000	84 700
Byudjet tashkilotlari uchun 1 Gkal	395 000	402 932
Ulgurji tashkilotlar uchun 1 Gkal	395 000	402 932